

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYONDALARI VA ULARNING FAOLIYATI

ADPI ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi: Shahnozaxon Keldiyeva

ADPI filologiya fakultetio`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 1-bosqich talabalari:

Ergashboyeva Sarvinoz,

Shavkatbekova Sevara

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizning ma'naviyatini oshirishga hissa qo'shgan, milliy istiqlol yo'lida jon fido etgan jadidlarimiz haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Jadid, jadidchilik, ma'rifat, taraqqiyot, madrasa, rus-tuzem maktabi.*

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng quloch yoyib rivojlandi. «Jadid» so'zi arabcha yangi usul degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy-ma'rifiy harakatning, ya'ni eski maktablarning qiyn o'qitish tizimiga nisbatan yengil tovuch usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida o'qitishga o'tishdangina iborat emasdi, ayni chog 'da turk-islom huquqiy munosabatlarining millatga o'rgatilishi, milliy-ma'rifiy, taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o'z ichiga olgan edi.

Ismoil Gaspirali (Gasprinskiy, Gaspiralik) — qrim-tatar millatiga mansub ziyoli qatlam vakili, pedagog, noshir, yirik siyosiy va jamoat arbobi. U jadidchilik va panturkizmning asoschilaridan biri deb ham hisoblanadi.

Gasprinskiy uzoq urinishlar va harakatlar natijasida 1881-yili “To'ng'ich” va “Shafaq” nomida ikki kichik varaqacha chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Gasprinskiy bu kichik gazetalarni chop qilib tarqatar ekan, uning asosiy maqsadi muslimmonlar ona tillaridagi bu gazetalarni qanday qabul qilishi va dindan tashqarida bo'lgan masalalar muhokamasiga ne darajada e'tibor qaratishini o'rganishdan iborat edi.

Gasprinskiy o'z gazeta-varaqalarini nashr qilar ekan, birinchi o'rinda o'quvchi va obunachi masalasini hal qilishi kerak edi.

1882-yilning o'rtalaridan boshlab Gasprinskiy doimiy ravishda nashr qilinadigan gazeta uchun ruxsat olishga qattiq kirishadi. Ayni vaqtning o'zida u ikki yozma asar – “Solnomai Turkiy” va “Mir'oti Jadid”ni nashrdan chiqardi.

Abdurauf Fitrat (1886, Buxoro shahri, Buxoro amirligi — 4-oktabr, 1938, Toshkent shahri, O'zbekiston SSR) — o'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi o'zbek professori (1926). Jadidchilik milliy ma'rifatparvarlik harakatining tarafdoi. Turkiyada ta'lim olgan. Inqilobga qadar O'rta Osiyon Rossiyanidan ozod qilinishi harakatlarida faol qatnashgan, politsiya nazorati ostida bo'lgan. Turkiyadagi „Yosh turklar“ harakatidan ilhomlanib, Buxoroda „Yosh buxoroliklar“ partiyasini tuzgan, uning ma'naviy rahnamosiga aylangan. Do'sti va maslakdoshi Munzim bilan hamkorlikda buxorolik 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaning bir qator oliy ta'lim muassasalariga o'qishga yuborgan (1922).

Cho‘lpon (asl ism-sharifi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusov; 1897-yil, Andijon — 1938.4.10, Toshkent) — shoir, yozuvchi, dramaturg , tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi. Dastlab, madrasada (1908-1912), so‘ngra rus-tuzem maktabida (1912-1914) o‘qigan. Sharq mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish va jadid matbuotini kuzatish yo‘li bilan adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimini oshirgan. 1914-yil Toshkentga kelib, „Sadoi Turkiston“ gazetasi bilan hamkorlik qilgan. „Yangi Sharq“, „Ishtirokiyun“ (1920-yildan „Qizil bayroq“, 1922-yildan „Turkiston“) gazetasida adabiy xodim (1919-1923), Xalq maorif komissarligi qoshidagi Ilmiy kengash (1921-yildan O‘lka o‘zbek bilim hay’ati, 1922-yildan Ilmiy hay’at)da rais (1920-1923), „Buxoro axboroti“ gazetasida muharrir (1921-1922), „Turon“ teatrida direktor (1921; 1922-1923), „Mushtum“ jurnali va „Darxon“ gazetasida texnik muharrir, adabiy xodim (1922-1923)sifatida faoliyat olib borgan.

Atoqli ma’rifatparvar, iste’dodli shoir va pedagog Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkentda kosib oilasida dunyoga kelgan va eski maktabda ta’lim olgan.

Abdulla Avloniy mакtab o‘quvchilari uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912), «Tarix», «Turkiy Guliston yoki axloq» (1913) kabi zamonasi uchun hodisa bo‘lgan darsliklarni yozgan. 1895 yildan ijodiy faoliyati boshlangan Avloniy «Qobil», «Shuhrat», «Hijron», «Avloniy», «Surayyo», «Abulfayz», «Indamas» taxalluslari bilan she’r, hikoya, feleton va kichik hajmli dramatik asarlar yaratgan. Shoir o‘z asarlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qiladi va kishilarni bilimga, ma’rifatga chaqiradi.

Biz maqolamizda jadid namoyondalaridan to’rttasini ko’rib chiqdik bunday jadid namoyondalarimiz juda ham ko’p ,jumladan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, G’ulom Zafariy, Ishoqxon To’ra Ibrat, Mahmudxo’ja Behbudiy kabi jadid namoyondalarimiz ilm-fan uchun milliy istiqlolimiz uchun ham moddiy ham ma’naviy kuch sarflaganlar.

Biz yoshlarni mustaqil vatanda ilm egallashimiz, ilmsiz, qashshoq, boshqalar tomonidan boshqarilmasligimiz uchun o‘z jonini fido qilganlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg’onishda va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy yo‘l bilan yechish yo‘llarini jadidlar o‘z maqola va asarlarida ko’rsatganlar. Yoshlarni o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy ma’naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jahan taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarining zamонави bilimdon, mutaxasislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularni jamiyat va davlatda munosib o‘rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi Yangi O‘zbekistonda namoyon bo‘lib turmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. SH. Mirziyoyev: Jadidlar merosini o‘rganishga bag’ishlangan xalqarokonferensiya ishtirokchilariga yo’llagan tabrigidan. 2023 yil 6-mart.

2. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O'zbekiston tarixi.(o'quv qo'llanma)T.2011.
3. Keldiyeva, S. (2024). TURKISTONDAGI JADID YANGI USUL MAKTABLARINING AHAMIYATI. Interpretation and researches, (4 (26)).
4. Shaxnozaxon, K. (2023). JADID MA'RIFATPARVARCHLIK NAMOYONDALARINING IJTIMOIY-SIYOSIY, FALASAFIY QARASHLARI. World scientific research journal, 15(1), 234-238.
5. Shaxnozaxon, K. (2023). JADID ZIYOLILARINING MILLIY MA'NAVIY ATIMIZDAGI AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 20(7), 35-38.